
"Mahallabay" tizimi samaradorligi mahalalarda



"Mahallabay" tizimi samaradorligi mahalalarda

Farg'ona viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan bugun tuman hokimligi majlislar zalida "So'x tumani hududlarida "Mahallabay" ishlash tizimi bo'yicha yo'lga qo'yilgan hamkorlik samaralari mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Matbuot anjumanida tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev ishtirok etdi va tadbirga taklif etilgan ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida mahalalarda olib borilgan ishlar tahlil etildi.

Tadbirda "mahallabay" tizimi asosida mahalla, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlari hamkorligi samaradorligi aniq misollar orqali ochib berildi. Tadbirda ishtirok etgan hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari ham o'z tajribalari xususida aniq misollar asosida ma'lumotlar berdilar.

Mazkur tadbir ochiq savollar bilan ayniqsa, zavqli o'tdi. Mahalliy va Respublika ommaviy axborot vositalari orqali mazkur tadbirdan olingan lavhalar yaqin kunlarda namoyish etiladi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati





2022-10-15 15:59:32